

“NODIRABEGIM” - O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXIDA YORQIN SHAXS

Temirova Shahzoda Nosir qizi

Temirova.shahzoda.lider@gmail.com

Toshkent davlat transport universiteti Qurilish muhandisligi fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asrda Qo‘qon xonligining madaniy hayoti shakllanib, taraqqiy etgan davrda muhim o‘rin egallagan o‘zbek shoirasi va ma‘rifatparvar ayol Nodirabegimning hayoti hamda ijodiy merosi keng yoritilgan. Unda shoirani yetishtirgan ijtimoiy-madaniy muhit, uning adabiy yo‘li va ijodiy tamoyillari, shuningdek, davlat hayotidagi faol ishtiroki tahliliy yondashuv asosida ko‘rib chiqilgan.

Maqola Nodirabegimning nafaqat she‘riyatdagi o‘rni, balki ma‘rifat targ‘ibotchisi sifatidagi faoliyati orqali o‘z davrining madaniy taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini ochib beradi. Uning ijodi orqali ayolning jamiyatdagi mavqei, fikr erkinligi va ma‘naviy yetukligi kabi masalalar ham nazardan chetda qolmagan.

Kalit so‘zlar: Shoira, Nodirabegim, Mohlaroyim, maktab ta‘limi, Qo‘qon xoni Umarxon, g‘azal, she‘riyat, o‘zbek va tojik tillari, taxallus, abadiylashtirish.

Farg‘ona vodiysi Markaziy Osiyoning qadimiy madaniy o‘choqlaridan biri sanaladi. Jumladan, Qo‘qon xonligi davridagi ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti bunga misol bo‘ladi. Qo‘qon xonligida o‘z davrida tarix, adabiyot, hattotlik va boshqa ko‘plab fan yo‘nalishlari, san‘at rivojlanib kelgan. Ayniqsa, adabiyot sohasi juda taraqqiy etgan. Ushbu tarixiy jarayonga ichki va tashqi omillar o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan albatta. Mazkur mintaqada adabiyoti taraqqiyoti masalasi o‘rganilganda Qo‘qon adabiy muhiti, xususan Nodirabegim ijodiy faoliyatini tadqiq etish izlanuvchilarni ko‘p murojaat etgan mavzularidan hisoblanadi. Bu bejiz emas albatta. Chunki bugungi kunda vatanimiz yosh avlodlarini zamon talablari asosida yetuk inson etib tarbiyalashda adabiyot, musiqa va san‘atning roli, bu sohalarda nom qozongan buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosini o‘rganish, undan yangi mazmunda ilhom olish, foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bizga ma‘lumki, sharq adabiyoti tarixida nafaqat iste‘dodli shoir va adiblar, balki ko‘plab shoirlar, maktabdor otinbibilar ham yetishib chiqqanligi ma‘lum. Anashunday o‘z zamonasining yetuk shoirlaridan biri, ulkan iste‘dod sohibasi, XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan mashhur o‘zbek shoirasi Mohlaroyim – Nodirabegim hisoblanadi. Mazkur iste‘dodli shoira adabiyotimiz tarixida Nodira, Komila, Maknuna taxalluslari bilan o‘zbek va tojik tillarida she‘rlar ijod etib, keng

qamrovdagi rang barang va boy poetik ijodiy merosi bilan nafaqat o‘zbek balki tojik xalqlari qalbidan o‘chmas joy olgan. Nodiraning ijodi o‘sha davrdagi o‘zbek adabiyotining Maxmur, Gulxaniy, G‘oziy, Uvaysiy kabi ilg‘or namoyondalari ijodiga hamohang tarzda rivojlangan. Shoira o‘z asarlarida Navoiy, Fuzuliy kabi she‘riyat ustozlarining hayotbaxsh mavzular taraqqiyotini davom ettirdi. Nodira yashagan davr adabiy muhiti, zukko shoiraning o‘z zamonasida madaniyat va ma‘rifatning ravnaqi yo‘lida olib borgan ulkan ishlari haqida davr tarixiy va adabiy manbalari boy ma‘lumotlar beradi. Xususan, Hakimxonto‘raning “Muntaxabut-tavorix”, Fozilbek Otabekning “Mukammal tarixi Farg‘ona”, Ishoqxon Ibratning “Tarixi Farg‘ona” va boshqa manbalar bunga misol bo‘ladi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra Nodira 1792-yil bahor faslining Navro‘z bayrami arafasida, hijriy 1206-yil xut oyining chorshanba kunida Andijon viloyatining qadimgi Chinortagi guzaridan uncha uzoq bo‘lmagan Rahmonquli xonadonida dunyoga kelgan. Otasi Rahmonquli- minglar urug‘idan bo‘lib, Qo‘qon xoni Olimxonning tog‘asi bo‘lgan va Olimxon tomonidan Andijon hokimligiga tayinlangan. Onasi – Oyshaxonim ham o‘z davrining aqlli va zukko ayollaridan edi. O‘zining oilaviy silsilasiga ko‘ra ushbu oila ham Bobur nasliga mansub bo‘lgan [1:316-317]. Bo‘lajak shoiraning Mohlaroyim ismi buvisi Sitoraxonim tomonidan qo‘yilgan. Lekin biz uning “Nodira”, “Maknuna”, “Komila” kabi taxalluslari mavjudligidan xabardormiz Aynan uning “Nodira” taxallusi uning yoshlik yillari bilan bog‘liq. Chunki Mohlaroyim oilada yolg‘iz farzand bo‘lgan va onasi Oyishaxonim sevimli qizini “yolg‘izim” deyishdan ko‘ra uni ko‘proq “Nodiram” deb chaqirar edi. Keyinchalik xonadondagi katta-kichiklar, hatto otasi ham qizchasini shunday erkalatadigan bo‘ldi. Mohlaroyim yoshligidan har narsaga qiziquvchan, ayniqsa buvisining ertaklariga qiziqishi baland edi. Shu sababli uni yetuk shoira bo‘lib yetishishida buvisining xizmatlari katta bo‘lgan deb aytish mumkin. Ta‘kidlash kerakki, Nodiraning maktab ta‘limini olishida ham buvisining o‘rni beqiyos bo‘lgan. Bo‘lajak shoira dastlabki maktab ta‘limini “Otinbuvi” maktabida Xafiza otin qo‘lida olgan. Xafiza otin pokiza, dono, bilimdon va shu bilan birgalikda she‘rxon ayol edi. Mohlaroyim har kuni maktabga enagasi Sadbarg xonim bilan borgan va u yerda ko‘plab dugonalar orttirgan. Uning eng yaqin dugonsi Zebo ismli qiz bo‘lib, u tojik tilini juda yaxshi bilardi va Nodira ham Zebo orqali tojik tilini puxta o‘rgandi. U nafaqat o‘zbek tilidagi balki, tojik tilidagi ruboiylar, g‘azallarni maroq bilan o‘qir edi va shu zaylda uning she‘riyatga bo‘lgan muhabbati yanada oshdi.

Oradan vaqtlar o‘tgach Nodirabegimning maktab ta‘limi nihoyisiga yetdi va u uchun katta hayotga qadam boshlandi. 1807-yilda Mohlaroyim 15-16 yoshligida Qo‘qon xoni Olimxonning ukasi, Marg‘ilon hokimi Umarbekka turmushga chiqdi. Taqdirning tuhfasini bilan shoiraning umr yo‘ldoshi ham o‘zi kabi she‘riyatga muhabbatli va

ishtiyoqmand edi. Nodira Umarbekka turmushga chiqqandan so'ng Marg'ilonga keladi va bu yerda ham u g'azalxonlik qobiliyatini yanada yuksaltirdi hamda umr yo'ldoshining yordami bilan yana bir iste'dodli shoira Jahon otin

– Uvaysiy bilan tanishdi. Uvaysiy ham Nodiradek she'riyat muxlisi, mohir g'Vazolxon edi. Keyinchalik ular birgalikda ko'plab iste'dodli ayol-qizlar uchun muallimlik qildilar. 1810-yilda Umarxon Qo'qon xonligi taxtiga chiqdi va uning rafiqasi Nodirabegim ham ikki farzandi bilan xonlik markazi Qo'qon shahriga ko'vchib o'tdilar. Nodiraning Umarxon bilan birga o'tqazgan hayoti shubhasiz saroy dabdabalaridan yiroq emas edi. Lekin yuksak aql-donish egasi bo'lgan shoira xonlik muhitining ziddiyatlarini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Ammo u o'zining xonlikda tutgan yuqori mavqeidan foydalanib mamlakatda obodonchilik ishlariga, ma'rifat tarqatishga ko'proq e'tibor berdi. Shuningdek o'zbek va tojik tillarida g'azallar bitgan she'riyat sohiblariga, iqtidorli xattotlar va naqqoshlarga tilla qalam hamda kumush qalamdonlarni hadya etib ularni qo'lladi

Nodiraning o'zi ham o'zbek va tojik tillarida ijod qilgan. Aynan Nodira taxallusida 180 ta she'r, Komila taxallusida 19 ta g'azal, Maknuna taxallusida esa 333 ta g'azallarni yaratdi. Uni umr yo'ldoshi Umarxon ham "Amiriy" taxallusida ko'pgina adabiy ijod namunalarini yaratdi. Mohlaroyim nafaqat madaniy-ma'rifiy ishlar bilan balki, farzand tarbiyasi bilan ham jiddiy shug'ullangan. Farzandlari bo'lmish Muhammad Alixon va Sulton Mahmudxonlarni ham shoira Uvaysiy yordami bilan ilm-fanga, adabiyot hamda she'riyatga muhabbatli qilib tarbiyaladi. Mohlaroyim hayot yo'lida nafaqat baxtli onlar balki hayotning og'ir chigalliklariga va judoliklariga ham duch keldi. Amir Umarxon 1822-yil hijriy 1237-yilda vafot etdi va Daxmai shohon maqbarasiga dafn etildi.

Bu paytda shoira 30 yoshda bo'lib, bu uning hayotidagi og'ir judoliklarning boshlanishi edi. Umarxon vafotidan so'ng taxtga katta o'g'li 12 yoshli Madalixon o'tirdi. Madalixon yosh bo'lishiga qaramasdan turli davlat amaldorlari va onasi ko'magi bilan davlat ishlarini olib bordi. Lekin saroyda yosh xonga qarshi hamda aka-uka o'rtasini buzishga qarshi qaratilgan fisqu-fasodlar ko'paydi. Ayrim hokim va beklar Madalixonni o'z ta'sirlariga olib, uning ortidan jirkanch, noo'rin ayblov hamda beayo'v qatlarni olib bordilar. Bechora ona hali yosh o'g'lini ulg'aygan sari o'z aqlini topib, adl bilan ish tutar deb umid qildi. Afsuski ona o'ylaganicha bo'lib chiqmadi. Xonlikda aql va tafakkur kuchi emas, jaholat tig'i hukmron edi. Muhammad Alixon riyokor amaldorlarning maslahati bilan otasi davridagi yurtga sadoqatli sarkardalarni va qo'shbegilarni ko'pini qatl ettirdi. So'nggi yillarda xon va uning amaldorlari tomonidan o'ylab chiqarilgan "o'lpon" solig'ini zo'rlik bilan xalqdan yig'ib olinishi xonlikda noroziliklarni yanada kuchaytirdi va ko'plab qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi.

Qo'qon xonligining ichkarisidagi notinchliklardan foydalangan Buxoro amiri Nasrulloxon 1842-yil mart oyida xonlik ustiga yurish qildi. Mohlaroyimning tinchlik istab yuborgan elchilarini qatl ettirdi va Qo'qon shahriga bostirib kirib Mohlaroyim va uning ikki o'g'illarini hamda Muhammad Amin ismli nabirasini qatl etdi. Shoiraning qatl ettirilganligi xabari butun shaharni qo'zg'atib yubordi. Kosib va hunarmandlar, ilmu-urfon va nazmiyat sohiblari g'ulu bilan shahar maydoniga chiqdilar. Mohlaroyimning jasadi topilib, Daxmai shohonga dafn etildi.

Nodirabegimning ijodi keyingi davrlarda ham hamisha turli ijodkorlarni ilhomlantirib keldi. Chunonchi, XX asrning o'rtalarida Ikinchi jahon urushi yillarida Oybek va G'afur G'ulom Nodira obrazini yaratishga bag'ishlangan "Qahqahai husn" dramasi ustida ish boshladilar

Taniqli kino rejissyor Komil Yormatov esa Nodirabegim hayotining so'nggi damlariga bag'ishlangan "Odamlar o'rtasida yolg'iz" nomli kinofilimini yaratdi. Shoir Turob To'la omonidan "Nodirabegim" (Fig'on) dramasi yaratildi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida ulug' shoiraning ijodini o'rganish, nomini abadiylashtirish ishlari yangi bosqichga ko'tarildi. Masalan, 1992-yilda Mohlaroyim tavalludining 200 yilligi keng nishonlanishi ushbu fikrimizga dalil bo'la oladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Mohlaroyim bu yurtda hayotning asl mohiyatini anglab, inson – eng ulug' va e'zozli mavjudot sifatida, ayniqsa ayol zotining jamiyatdagi o'rnini yuksak darajada qadrladi. Nodira asrlar davomida sukutda qolgan, ammo yuragi nola bilan to'lgan xotin-qizlarning ichki iztiroblariga samimiy hamdardlik bildirdi. U muhabbat, sadoqat va vafo kabi insoniy tuyg'ularni go'zal she'riy misralar orqali tarannum etib, ayolning ruhiy olamini badiiy shaklda yoritdi.

Ijodida ma'rifatli, komil fazilatlar egasi bo'lgan o'zbek ayolining chuqur fikr doirasini va sermazmun dunyoqarashini jahon sahnasiga olib chiqishga muvaffaq bo'ldi. Nodirabegim mustaqil O'zbekiston yoshlariga har doim ilhom baxsh etuvchi, she'riyat osmonida porlab turgan mash'ala, adabiyotda peshqadam shoira timsolida barhayot qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiahmedov A. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2005.
2. Karimov N. O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
3. Rajabov A. Nodirabegim hayoti va ijodi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2012.
4. Jo'rayev Sh. XIX asr o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Universitet, 1999.
5. Elektron manbalar:

www.ziyouz.com – Nodirabegim hayoti va ijodi

www.kutubxona.uz – Adabiy manbalar bazasi